




International Scientific and Practical Conference on the
topic: " Sustainable Architecture – Challenges and
Achievement of the Present and Future"



PRINCIPLES OF FORMATION OF DOMES OF ARCHITECTURAL MONUMENTS OF THE CITY OF SAMARKAND

Pardayev R.T. Khayitboyev N.K.

SamDAQU is a teacher in the Department of "Architectural Design".

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Samarqand shahri me'moriy yodgorliklari gumbazlarini shakllanish tamoyillari, ularning xususiyatlari ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar. *Shahrsozlik, arxitektura, kompleks, me'moriy obida, gumbaz.*

Аннотация. *В данной статье рассмотрены принципы формирования куполов памятников архитектуры города Самарканда, их особенности.*

Ключевые слова. *Градостроительство, архитектура, комплекс, памятник архитектуры, купол.*

Annotation. *This article examines the principles of formation of domes of architectural monuments of the city of Samarkand, their features.*

Keywords. *Urban planning, architecture, complex, architectural monument, Dome.*

Kirish. Samarqand dunyo taraqqiyotining eng qadimgi va markaziy shaharlaridan biri bo'lib, jahon madaniyati va fani xazinasiga katta hissa qo'shgan shahardir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati rahbarligida mustaqillik yillari Samarqand shahridagi arxitektura yodgorliklarini tiklash va ta'mirlash, ayniqsa, eski shahar qismini qayta qurish va ta'mirlash, obodonlashtirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi.

An'anaviy me'moriy obidalarimiz shakllanishi juda qadim davrlarga borib taqaladi. Ko'hna tarix sahifalarini varaqlar ekanmiz, ko'z oldimizdan mo'jiza kabi ajoyib me'morchilik obidalari o'tadi. Qadimiy imoratlar, inshootlarning har biri inson qo'li bilan tiklangan, uning har bir g'ishtida bobolar nafasi seziladi. Asl san'atkorlar ijodi, fantaziyasi, mehnatlari o'laroq tiklangan binolarda muayyan davr madaniyatining in'ikosini ko'ramiz. Nozik did, yuksak mahorat, yorqin daho bilan ijod etilib, barpo bo'lgan yodgorliklar xalqning madaniy boyligi, faxri va g'ururidir[1].

Gumbaz—qubba shaklidagi suyri fazoviy hajmdagi tom. Tarhi aylana, chorsi, to'g'ri to'rtburchakli, muntazam ko'pburchakli shaklda bo'ladi. Shuningdek, ko'pburchakli xona va katta inshootlar devorlari ustida, ba'zan ustunlarni birlashtirgan doirasimon qurilma poygumbaz ustida davra ko'rinishida xom g'isht, pishiq g'isht, tosh, beton va boshqa materiallardan sirti silliq, qirrali, qovurg'ali

ko'inishida bo'lishi mumkin. Gumbazlarni paydo bo'lishi va shakllanish tamoyillari, taraqqiyot yo'llari 3 sababga ko'ra shakllangan. Bular quyidagilar:

- tabiiy sharoit, hayot taqozosi;
- mavjud qurilish materiallari imkoniyati (ayniqsa yog'och tanqis joylarda me'morlar ko'proq gumbaz tomlarni bog'lagan);
- shakl-u shamoyili yuksak badiiy samara bag'ishlagani, me'moriy obrazi muhtasham mahobat kasb etgani.

Gumbazning ilk namunalari ibtidoiy odamlar boshpanalari — tabiiy g'orlarda, keyinchalik yerto'lalarda, yog'och va xascho'plardan, qamish, hayvon terisi, kigiz yopilgan o'tov kabi kulbalarda mujassam bo'lib, ijtimoiy taraqqiyot mobaynida shakli murakkablashib borgan.

Dunyo xalqlari me'morchiligida gumbazning oddiy pog'onali, davra, suyri, bag'allarga (parus, tromplarga) ishlangan va boshqa turlari uchraydi. Gumbaz binoga tashqi va ichki tomondan mahobat bag'ishlaydi.

O'rta Osiyoda saqlangan qadimiy me'moriy yodgorliklar — mahobatli jamoat binolari (saroy, masjid, xonaqoh, karvonsaroy, maqbara, hammom va boshqalar), sardobalarda gumbazning balxi, charxi, chortark, chorkunjak, piltavor, g'arovli, kulohiy, mirzoiy, shalg'amiy turlari, ayrimlarida qo'sh (ichki va tashqi) gumbaz ham mavjud. Saroy, masjid, madrasa va boshqa binolar, maqbaralarning asosiy katta xonasi — xonaqohi mehrobiiy gumbaz bilan yopilgan. Balxi gumbaz tuzilishi ancha sodda bo'lib, madrasa, hammom, karvonsaroy oddiy xonalari, qaznoq va boshqalarda ko'p qo'llanilgan. Chortark gumbaz esa to'g'ri to'rtburchak shakldagi kichik xonalarda bo'ladi. O'rta Osiyoda gumbazning ilk namunalari Toshkent, Samarqand va Xorazm qal'alarida uchraydi.

Gumbazlar asrlar mobaynida shakllanib, rivojlangan. X—XI asrlarda Somoniylar maqbarasi - xonaning devor burchagidagi bag'ali ravoq shaklida bo'lib, ustiga gumbaz o'rnatilgan. XII asrdan gumbazlar baland bo'lishiga ahamiyat berilgan. XIV asrdan murabba tarhli xonalar burchagiga ravoqli bag'allar ishlana boshlangan, ichkarisi ganchkor muqarnaslar bilan bezatilgan, gumbazning devorga tutash qismiga muqarnaslar ishlanganligini Yassaviy majmuasida ko'rish mumkin. XV asrlar Go'ri Amir maqbarasida gumbaz bilan devor ustiga g'o'lasimon va ko'p qirrali poygumbaz tiklanib, tepasiga qo'sh gumbaz bog'langan, gumbazlar tashqi tomoni g'ishtin, sirkor, koshinkor bezatilgan. XVI asrdan boshlab ichki gumbaz shakli yanada o'zgardi, poygumbazlarga darchalar ochildi, qovurg'ali bezaklar paydo bo'ldi[2].

Olimlardan Bulatov M.S., Zohidov P.SH., Kryukov K.S., Mankovskaya L.Y., Pugachenkova G.A., Rempel L.I. va boshqalar Samarqand me'moriy obidalarining maxsus loyihalashtirish vositasida qurilganligini, uning asosida chuqur bilimlar yotganligini isbotlab berganlar [3,4].

Amir Temur davrida shakllangan peshtoq va anfilada tarzida ketma-ket quriladigan gumbazli xonalar kompozitsiyasi ko'inishidagi xonaqohlar Shahrisabz, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Hirot va Turkiston shaharlarida keng qo'llanilgan, tabiiyki, fan va texnikaning yuksak taraqqiy etishi bino va inshootlar qurilishida turlicha qurilish materiallari va konstruksiyalarni qo'llashni taqozo etadi. Shu tariqa yangi usullar paydo bo'lgan. Masalan, Samarqanddagi Ruhobod (Burxoniddin Sog'arjiy) maqbarasi oddiy g'ishtdan tiklanib, gumbazi 32 burchakli konstruksiya ustiga qurilgan bo'lsa, Shohi Zinda, Go'ri Amir va Bibixonim majmualarida turlicha gumbaz konstruksiyalari hamda shakllarini uchratish mumkin[5]. Biror-bir gumbaz o'z shakli va qurilishi jihatidan boshqasini takrorlamaydi. Bu davrda

Turkistoni, Balxi, Mirzoi singari 50 dan ortiq bir va ikki qavatli gumbaz hamda gumbazosti qurilmalari qo'llanilgan va takomillashtirilgan.

Binolar pardozida parchin, koshin, koshinburush, kundal, qirma, ganch o'ymakorligi, oddiy va charxlangan g'ishtni turlicha terish usullari (bo'ylama, ko'ndalang, qiyalab, yotqizib, qirralab), tosh hamda marmar, sopol, yog'och, ganch va boshqa materiallardan ishlangan turli badiiy vositalar qo'llangan. O'sha davrda yaratilgan ilg'or qurilish texnologiyasining katta qismi hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Masjidlar ayvoni ustunlari, masjidga kirish eshiklari, yog'och o'ymakorligi, ichki va tashqi devorlar ganch o'ymakorligi, ba'zida koshinkorlik naqshlari, shiftlar esa asosan har xil rangli bo'yoqlar (ranglar) bilan bezatilgan.

Mustaqillikda so'ng Prezident hamda hukumatimiz tashabbusi bilan Samarqandda deyarli barcha tarixiy obidalar qayta ta'mirlandi. Me'moriy yodgorliklar gumbazlarini ta'mirlashda milliy me'morlik materiallaridan tashqari, temir-betondan (Yunusxon maqbarasi, Tillakori madrasasi va Bibixonim jome masjidi, Imom al-Buxoriy majmuasi), shuningdek, armotsement konstruksiyalardan (Andijondagi jome masjid) foydalanilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, o'tmishimizni avaylash, tarixiy obidalarni e'zozlash, asori-atiqalarni, qolaversa, xalqimizning buyuk o'tmishi, yashayotgan ijtimoiy hayoti va kelajagi bilan bevosita bog'liqdir. Bu xususiyatlar millatimiz va xalqimizning milliy qadriyati bo'lib, azaldan ularning qon-qoniga singib ketgan. Shuni unutmasligimiz kerakki, ushbu obidalarni qayta ta'mirlash, tiklash va boshqa say'i-harakatlar zahirida eng asosiysi ota-bobolarimizga chuqur hurmat va ehtirom, hamda ularga nisbatan minnatdorchilik hissi yotishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedov M.Q. Me'moriy meros.-T.: "fan va texnologiya", 2011.
2. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar.T.: "O'qituvchi", 1994.
3. Pugachenkova G.A., Rempel L.I. Vedayushiesya pamyatniki arxitekture Uzbekistana, T.: 1958.
4. Bulatov M.S. Geometricheskaya garmonizatsiya v arxitekture Sredney Azii IX-XV vv. - Moskva.: "Nauka", 1988.
5. Abu Tohirxo'ja Samarqandiy. Samariya.
6. Kayumov, H., & Israyilov, E. (2022). Environment as the basis and perceptions of monuments of architecture and historical cities of Uzbekistan. *academia globe: inderscience research*, 3(10), 112-125.
7. Каюмов, Х. И. (2021). Проблемы сохранения архитектуры исторической среды древнего города и развитие туризма. *интернаука*, (20-1), 6-10.
8. Fozilova, Z. Q. (2023). Samarqand shahrining bosh rejaları tahlili. *Arxitektura, muhandislik va zamonaviy texnologiyalar jurnali*, 2(1), 117-122.
9. Fozilova, Z. Q. (2023). Irrigation System of Samarkand City. *Journal of engineering, mechanics and modern architecture*, 2(2), 64-68.
10. Салохиддинова, Д. З. (2022). Архитектурная среда Самарканда: традиции и современность.
11. Салохиддинова, Д. З., & Солиев, Ф. Ф. (2023). FEATURES OF THE LANDSCAPE ORGANIZATION OF THE TERRITORIES OF PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(3), 162-167.